



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorlikнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejapov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

8. Maludakxan S., Akhmadkhonovna S. G. Distinctive Features of the Development of Industrial Production //Telematique. – 2023. – T. 22. – №. 01. – C. 663-667.
9. Sattikulova G. A., kizi Abdugoipova M. A Ways to Effectively Use Labor Resources //Telematique. – 2023. – T. 22. – №. 01. – C. 1699 - 1704.

UDK. 330.354

O‘ZBEKISTONDA KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI TRANSFORMATSIYASI: DIREKTIV MODEL DAN BOZOR TAMOYILLARIGA

ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ КЛАСТЕРНОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ДИРЕКТИВНОЙ МОДЕЛИ К РЫНОЧНЫМ ПРИНЦИПАМ

TRANSFORMATION OF THE INSTITUTIONAL FRAMEWORK FOR CLUSTER DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: FROM A DIRECTIVE MODEL TO MARKET PRINCIPLES

Ustadjalilov Dostonbek Rustamovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
“Insight union” MChJ bosh rahbari

Annotatsiya

Mazkur maqolada 2017–2024 yillarda O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional transformatsiyasi tahlil qilinib, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishda direktiv, davlat tomonidan tashabbuskor bo‘lgan yondashuvdan bozor tamoyillariga asoslangan modelga o‘tish masalalari yoritiladi. Tadqiqot klasterlar nazariyasining asosiy yo‘nalishlariga (agglomeratsiya nazariyasi, Porter klaster paradigmasi, Yangi iqtisodiy geografiya, evolyutsion va tarmoq yondashuvlari) tayangan holda klasterlarni mezoiqtisodiy tizim sifatida talqin qiladi: bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot va ta‘lim muassasalari, davlat institutlari, fasilitatorlar hamda KO‘B subyektlari yagona qiymat zanjiri doirasida o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Metodologik jihatdan maqolada tizimli va me‘yoriy-huquqiy tahlil qo‘llanadi hamda SWOT yondashuvi orqali klaster siyosatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, davlat ko‘magining keng instrumentlari klasterlashuvni tezlashtirgan bo‘lsa-da, tarmoqlar kesimida qoidalar notekisligi, mustaqil fasilitatsiya yetishmasligi, samaradorlik monitoringining zaifligi hamda “1 klaster – 1 korxonalar” modeli mustahkamlanishi raqobat, kirib kelish (entry) va texnologik yangilanishni cheklashi mumkin. Mualliflar yagona “Klaster” va “Klaster siyosati” doirasini qabul qilish hamda natijaga yo‘naltirilgan, “rule-based” boshqaruvga o‘tish institutsional izchillikni kuchaytirishi, ad hoc yondashuvlarni kamaytirishi va klasterlarning raqobatbardoshligini oshirishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: klaster siyosati; institutsional transformatsiya; O‘zbekiston; bozor tamoyillari; davlat tartibga solishi; fasilitator; samaradorlik monitoringi; SWOT/TOWS; raqobatbardoshlik; innovatsion ekotizim.

В статье исследуется институциональная трансформация кластерного развития в Узбекистане в 2017–2024 гг. с акцентом на переход от директивной, государственно иницируемой модели к рыночным принципам формирования и функционирования кластеров. Опираясь на основные теоретические направления кластерных исследований (теория агломерации, парадигма М. Портера, Новая экономическая география, эволюционный и сетевой подходы), авторы формируют единое аналитическое представление о кластере как

мезоэкономической системе, объединяющей производственные компании и комплементарные институты (научно-исследовательские и образовательные организации, государственные структуры, фасилитаторов и субъекты МСП) в рамках цепочки создания стоимости. Методология включает системный и нормативный анализ, дополненный логикой SWOT для выявления ключевых институциональных сильных и слабых сторон, возможностей и угроз кластерной политики. Результаты показывают, что широкий набор мер государственной поддержки ускорил развитие кластеров и инфраструктуры, однако одновременно сформировал институциональные риски: неоднородность отраслевых режимов, дефицит независимой фасилитации, слабость мониторинга результативности и закрепление модели «один кластер — одно предприятие», что потенциально ограничивает конкуренцию, вход новых участников и технологическое обновление. Обосновывается, что принятие единой рамки «кластер» и «кластерная политика», а также переход к правил-ориентированному, результативному управлению усилят институциональную согласованность, сократят фрагментарные практики и повысят эффективность и конкурентоспособность кластеров за счет прозрачных стимулов и измеримых результатов.

Ключевые слова: кластерная политика; институциональная трансформация; Узбекистан; рыночные принципы; государственное регулирование; фасилитатор; мониторинг эффективности; SWOT/TOWS; конкурентоспособность; инновационная экосистема.

This article examines the institutional transformation of cluster development in Uzbekistan over the period 2017–2024, with a focus on the transition from a directive, state-initiated model toward market-based principles of cluster formation and growth. Building on the main theoretical traditions of cluster studies (agglomeration theory, Porter’s competitiveness paradigm, New Economic Geography, evolutionary and network approaches), the paper develops a unified analytical understanding of clusters as meso-level systems that combine firms and complementary institutions (research and educational organizations, public bodies, facilitators, and SMEs) within an integrated value-creation framework. Methodologically, the study applies systemic and regulatory analysis and complements it with a SWOT logic to identify key institutional strengths, weaknesses, opportunities, and threats in Uzbekistan’s cluster policy environment. The findings suggest that while extensive state support has accelerated cluster rollout and infrastructure building, it has also generated institutional risks, including uneven sectoral rules, weak independent facilitation, insufficient performance monitoring, and the consolidation of the “one cluster–one enterprise” pattern that may constrain competition, entry, and technological upgrading. The article argues that adopting a unified “Cluster” and “Cluster Policy” framework and shifting toward rule-based, performance-oriented governance would strengthen institutional coherence, reduce ad hoc practices, and improve cluster efficiency and competitiveness through transparent incentives and measurable outcomes.

Keywords: cluster policy; institutional transformation; Uzbekistan; market principles; state regulation; facilitators; performance monitoring; SWOT/TOWS; competitiveness; innovation ecosystems.

Keng qamrovli tadqiqotlar klasterlarning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyatini chuqur yoritib, ularning mintaqaviy raqobatbardoshlikni mustahkamlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini ta’kidlaydi. Turli iqtisodiy an‘analarga mansub olimlar klaster dinamikasi bo‘yicha ilmiy munozarani kengaytirib, aglomeratsiya samaralari, institutsional tuzilmalar va davlat siyosatining klasterlar trajektoriyasiga ta’siri kabi jihatlarni tahlil qilgan.

Klasterga yo‘naltirilgan sanoat rivojlanishining konseptual bazasi iqtisodiy fikrning bir necha yo‘nalishlariga tayanadi: klassik aglomeratsiya nazariyasi, Porterning klaster paradigmasi, Yangi iqtisodiy geografiya (NEG), evolyutsion iqtisodiyot hamda tarmoq (network) yondashuvlari. Ushbu yondashuvlar klasterlarning vujudga kelishi va rivojlanish mexanizmlarini izohlab, hududiy konsentratsiya, raqobat ustunligi, bilimlarning tarqalishi va institutsional o‘zaro ta’sir kabi omillarning muhimligini ko‘rsatadi. [1]

Zamonaviy tadqiqotlarda klasterlar turli, bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yo‘nalishlar doirasida o‘rganiladi. M. Porter klasterlarni milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy manbai sifatida talqin qilib, samarador ishlab chiqarish tizimlari doirasida aglomeratsiya, raqobat (rivalry) va hamkorlik orqali unumdorlik oshishini asoslaydi. Bengt-Åke Lundvall klasterlarda yashirin (tacit) bilim almashuvi va interaktiv o‘rganish innovatsiyani spilloverlar orqali jadallashtirishini ta’kidlaydi. S. Rosenfeld klasterlarni geografik yaqinlik bilan shakllangan o‘zaro bog‘liq iqtisodiy ekotizimlar sifatida ko‘rib, klaster chegaralarini ma’muriy hududlar emas, balki funksional iqtisodiy zonalar asosida belgilash zarurligini ilgari suradi. Evolyutsion-institutsional an’anada G. Kleiner klasterlarni muvofiqlashtirilgan hamkorlik orqali rivojlanadigan moslashuvchan tizimlar deb baholab, ularning barqarorligi va raqobatbardoshligi kuchayishini qayd etadi. Yangi iqtisodiy geografiya doirasida P. Krugman va A. Venables aglomeratsiya va dispersiya kuchlarining muvozanati hududiy konsentratsiyani qanday shakllantirishini tahlil qilib, natijalarni miqyos samarasi, bozorga kirish (market access) va resurslar uchun raqobat bilan bog‘laydi; A. Venables esa klasterlarning yuzaga kelishini xalqaro ixtisoslashuv, malakali mehnat resurslari konsentratsiyasi va rivojlangan logistika mavjudligi bilan izohlaydi.

Klasterlarning uzoq muddatli natijadorligini belgilovchi institutsional, evolyutsion va tarmoq mexanizmlariga e’tibor qaratadigan ikkinchi ilmiy yo‘nalish ham mavjud. R. Nelson va S. Winter firmalarni vaqt o‘tishi bilan “rutinlar”ni shakllantiradigan va moslashadigan tashkilotlar sifatida talqin qilib, jamg‘arilgan salohiyat (capabilities) hamda institutsional muhit mintaqaviy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashini ko‘rsatadi. R. Boschma geografik va institutsional yaqinlik innovatsiyalar tarqalishini va bozor tebranishlariga moslashuvchanlikni kuchaytirishini ta’kidlaydi, R. Martin esa mahalliy me’yorlar, tartibga solish va ma’daniy omillar klaster traektoriyasini shakllantirishini hamda global bilimlarni integratsiyalashda institutsional tayanchning rolini asoslaydi. K. Morgan “o‘rganuvchi mintaqalar” (learning regions) konsepsiyasini rivojlantirib, universitetlar, ilmiy institutlar va firmalar hamkorligi bilimlarni birgalikda yaratish va innovatsion o‘sisni tezlashtirishini ko‘rsatadi. J. Rayner klasterlarni shakllantirishda faol va puxta davlat siyosati katalizator bo‘lishi mumkinligini urg‘ulaydi; M. Castells desentralizatsiya va gorizontalar tarmoqlarni bilim almashuvi hamda innovatsiyalar diffuziyasini tezlashtiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi; M. Mazzucato esa missiyaga yo‘naltirilgan, davlat yetakchiligidagi innovatsion siyosat hamda strategik davlat investitsiyalarining klasterlar kengayishidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida A. Vakhobov klasterlashuvni “yashil iqtisodiyot”ni ilgari surish va barqaror texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmi sifatida ko‘radi; T. Rasulov va N. Makhmasobirova klasterlarni milliy raqobatbardoshlikni kuchaytirish omili sifatida tahlil qiladi; D. Begimova esa klasterlarni universal tarzda ta’riflash murakkabligini qayd etib, ularning asosida odatda geografik yaqinlik, o‘zaro bog‘liqlik, sinergiya va resurslardan samarali foydalanish tamoyillari yotishini ta’kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, klasterlarni standartlashtirilgan tarzda ta’riflash klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini o‘rganishda yagona analitik yondashuvni ta’minlash uchun zarur. Biz klasterlarni bir yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq tarmoqlarda faoliyat yurituvchi, sanoat va texnologik firmalar o‘rtasidagi tizimni shakllantiruvchi (system-forming) mezo-iqtisodiy tarmoq sifatida ta’riflaymiz; u ilmiy-tadqiqot va ta’lim tashkilotlari, davlat institutlari, fasilitatorlar hamda qo‘llab-quvvatlovchi kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlari bilan to‘ldiriladi.

Innovatsion klaster doirasida komplementar ishtirokchilar aniq funksiyalarni bajaradi: ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy natijalarni yaratadi va ularni ishlab chiqarishga transfer qiladi, ta’lim muassasalari esa klaster ishtirokchilari uchun zarur inson kapitalini tayyorlaydi. Qo‘llab-quvvatlovchi KO‘B subyektlari xizmatlar, komponentlar va infratuzilma taqdim etish orqali asosiy qiymat zanjirini kuchaytiradi — bular qatoriga tashqi bozorlar bo‘yicha marketing tahlili, start-up tarmoqlari, akseleratorlar, inkubatorlar, venchur fondlari, innovatsion agentliklar hamda murakkab mahsulotlar uchun kirish resurslari va butlovchi qismlar yetkazib beruvchilar kirishi mumkin.

O‘zbekistonda klasterlarni davlat tomonidan tartibga solish tizimining SWOT tahlili asosida strategiyalar jamlanmasi [2]

№	Strategiyalar guruhi	Tahlil qilinadigan juft omillar
1	Kuchli tomonlar – Imkoniyatlar (SO)	• Kredit resurslari (S1) + Potensial xorijiy bozorlar (O2)• Soliq instrumentlari (S2) + To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi (TXI) (O1)• Bojxona imtiyozlari (S3) + Ilg‘or xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish (O3)
2	Zaif tomonlar – Imkoniyatlar (WO)	• Fasilitatorlar yetishmasligi (W3) + Potensial xorijiy bozorlar (O2)• Loyihalar samaradorligini monitoring qilishning sustligi (W1) + TXI oqimi (O1)• Tadqiqot va ishlanmalar (R&D)ga qiziqishning pastligi (W2) + Ilg‘or xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish (O3)
3	Kuchli tomonlar – Tahdidlar (ST)	• Kredit resurslari (S1) + Texnologik qaramlik va texnologiyalarni milliy himoya qilish (T1)• Soliq instrumentlari (S2) + Yetuk xorijiy raqobatchilar (T3)• Bojxona imtiyozlari (S3) + Ta‘minot zanjirlarining uzilishi (T2)
4	Zaif tomonlar – Tahdidlar (WT)	• Fasilitatorlar yetishmasligi (W3) + Yetuk xorijiy raqobatchilar (T3)• Loyihalar samaradorligini monitoring qilishning sustligi (W1) + Texnologik qaramlik va texnologiyalarni milliy himoya qilish (T1)• R&Dga qiziqishning pastligi (W2) + Ta‘minot zanjirlarining uzilishi (T2)

2017–2024 yillar davomida O‘zbekiston klasterlashuvni milliy iqtisodiy modernizatsiya, eksportni kengaytirish va texnologik yangilanishning asosiy instrumenti sifatida ko‘rib kelmoqda; bu, xususan, amaliy tadqiqotlarni ustuvorlashtirish, “korxonalar–universitet–ilmiy-tadqiqot tashkiloti” hamkorligini kuchaytirish hamda asosiy texnologik yo‘nalishlarda ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi strategik kun tartibida yaqqol aks etadi. [3] Shu bilan birga, klasterlarni shakllantirishning amaldagi institutsional arxitekturasini asosan “yuqoridan pastga” (top-down) mantiqiga tayangan bo‘lib, bunda davlat klaster konfiguratsiyalarining bosh tashabbuskori va dizayneri sifatida maydonga chiqadi. Bizning fikrimizcha, mazkur institutsional dizayn qisqa muddatda tezkorlik va muvofiqlashtirishni ta‘minladi, biroq u bir qator tarkibiy xatarlarni ham yuzaga keltiradi: ma‘muriy ortiqcha aralashuv ehtimoli, tarmoqlar kesimida qoidalar notekisligi hamda klaster ekotizimlarida raqobatga kirish (contestability) imkoniyatlarining cheklanishi.

Tizimga bo‘lgan institutsional qarashimiz davlat salohiyatining kuchliligi va bozor o‘z-o‘zini tashkil etish mexanizmlarining nisbatan sustligi o‘rtasida barqaror nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, davlat milliy ustuvor yo‘nalishlar atrofida resurslarni safarbar etish va ishtirokchilarni uyg‘unlashtirishga qodir bo‘lgan keng instrumentlar to‘plamini — tartibga solish vositalari, maqsadli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va strategik dasturlashni — jamlagan. Boshqa tomondan, tizim institutsional xarakterdagi bo‘shliqlardan holi emas: mustaqil fasilitatsiya imkoniyatlarining cheklanganligi, klaster ichidagi boshqaruv (intra-cluster governance) jarayonlarining shaffofligi va bashorat qilinuvchanligining yetarli emasligi, natijalarni monitoring qilish hamda samaradorlikka asoslangan javobgarlikni (performance-based accountability) ta‘minlash mexanizmlarining zaifligi. Ushbu omillar klaster ichida muvofiqlashtirishdagi uzilishlarni kuchaytiradi, innovatsiyaga yo‘naltirilgan hamkorlik rag‘batlarini pasaytiradi va ishtirokchilarni gorizontal raqobat-hamkorlik tarmoqlari o‘rniga vertikal ma‘muriy munosabatlarga “qotirib” qo‘yishi mumkin.

Mazkur institutsional burilish (transformatsiya) amaliyotda ko‘p uchraydigan “1 klaster = 1 korxonalar” (de facto) andozasini bartaraf etish nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizga ko‘ra, klaster bitta tizimni shakllantiruvchi (system-forming) yadro korxonalar va unga qaram kontragentlarga qisqartirilsa, u ochiq mezodarajadagi bozor ekotizimi sifatida ishlashdan to‘xtaydi va ko‘proq ma‘muriy boshqariladigan qiymat zanjiriga yaqinlashadi. Bunday

konfiguratsiya bozorga kirishni (entry) cheklashi, yetkazib beruvchilarni modernizatsiya qilish rag‘batlarini susaytirishi hamda tajriba va diversifikatsiya (experimentation diversity) ko‘lamini kamaytirishi mumkin; holbuki, aynan shu xilma-xillik muvaffaqiyatli klaster tizimlarida innovatsionlik, barqarorlik va unumdorlik o‘shining muhim manbai hisoblanadi.

Weihrich matritsasi mantiqiga tayanuvchi SWOT yondashuvi doirasida bizning tahliliy xulosamiz shundan iboratki, eng katta imkoniyat O‘zbekistonning mavjud “kuchli tomonlari”ni — siyosiy-institutsional salohiyat, moliyaviy va fiskal instrumentlar hamda tartibga solish imkoniyatlarini — investitsiyalarni jalb qiladigan, eksportni “kashf etish” (export discovery) jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydigan va texnologik qaramlikni kamaytiradigan ishonchli bozor muhitiga aylantirishdan iborat. Biroq asosiy tahdidlar (texnologik proteksionizm, global fragmentatsiya, yetuk xorijiy klasterlarning raqobat bosimi) shuni ko‘rsatadiki, faqat ma‘muriy muvofiqlashtirishga tayanish xatarli; aksincha, klasterlar raqobatlashish, hamkorlik qilish va innovatsiyalar hamda salohiyatlarni rivojlantirish orqali yangilanishni ta‘minlaydigan “o‘rganuvchi tizimlar”ga aylanishi, bu jarayon esa natijani rag‘batlantiradigan va rent-seeking holatlarini jilovlaydigan institutlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Shuni ta‘kidlash joizki, “Klaster siyosati” bo‘yicha konsepsiya loyihasi klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, shuningdek, klaster asosidagi iqtisodiy rivojlanish uchun monitoring tizimini yaratish zarurligini qayd etadi. “Klaster” va “Klaster siyosati”ning yagona konsepsiyasi bo‘yicha loyiha klasterlarni rivojlantirishda direktiv, ma‘muriy boshqariladigan modeldan bozor tamoyillariga yaqinroq bo‘lgan institutsional arxitekturaga o‘tishni konseptual jihatdan asoslaydi. Unda “klaster tashabbuslari”ni qo‘llab-quvvatlash, ishtirokchilarning o‘z-o‘zini tashkil etishini rag‘batlantirish, rivojlanish infratuzilmasini (masalan, maxsus markazlar/vakolatli tuzilmalar) shakllantirish hamda klaster siyosatini strategik yondashuv asosida yuritish masalalariga ustuvor ahamiyat beriladi. Mazkur mantiqda klasterlar va ularning ishtirokchilarini ma‘muriy belgilashdan ko‘ra, firmalarning raqobatbardoshligini oshiradigan hamda klaster ichidagi muvofiqlashtirish samaradorligini kuchaytiradigan hamkorlik va loyiha asosidagi o‘zaro aloqalarni (project-based interaction) ta‘minlash ustuvor bo‘lib boradi.

Loyihada mujassam bo‘lgan asosiy bozor tamoyili — davlatning rolini qayta talqin qilishdir: ya‘ni firmalarning xo‘jalik qarorlariga bevosita aralashuvdan iqtisodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga o‘tish. Ustuvor yo‘nalishlar sifatida ma‘muriy to‘siqlarni qisqartirish, “biznes-ta‘lim” bog‘liqligini kuchaytirish va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, muhandislik va transport infratuzilmasiga hamda sanoat faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa bazaviy sharoitlarga investitsiyalarni yo‘naltirish, shuningdek, amaldagi huquqiy doirada fiskal rag‘batlarni qo‘llash belgilangan. Kutilayotgan natijalar raqobatbardoshlikning oshishi (jumladan, narxga bog‘liq bo‘lmagan raqobatbardoshlik), yuqori qo‘shilgan qiymatli eksportning kengayishi, innovatsion dinamikaning tezlashishi, investitsion jozibadorlikning ortishi hamda hududiy darajada kengroq ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sir orqali ifodalanadi.

Institutsional nuqtayi nazardan, ushbu me‘yoriy hujjatni qabul qilish zarur va o‘z vaqtida, deb baholanadi. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (MIIT) tomonidan 04/05/2023 sanada jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan, muhokama esa 19/05/2023 sanada yakunlangan; Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi izohiga ko‘ra, hujjat hozirda ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida ko‘rib chiqilmoqda. Ushbu hujjatning qabul qilinishi klasterlarning institutsional muhitini mustahkamlash uchun yaxlit poydevor yaratishi mumkin, chunki u yagona ta‘riflar, tamoyillar va siyosiy instrumentlarni kodifikatsiya qilib, noaniqlikni kamaytiradi, hilma-hil va xaotik yondashuvlarni cheklaydi va klasterlar rivojlanishini yanada shaffof, bashorat qilinadigan hamda iqtisodiy jihatdan samaraliroq yo‘nalishga buradi. [4]

Umuman olganda, 2017–2024 yillarda O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional modeli davlatning kuchli tashabbuskorligi va dizaynerlik roli bilan tavsiflanadi; bu holat dasturlarni tez ishga tushirish, resurslarni safarbar etish hamda infratuzilmaviy va moliyaviy rag‘batlarni shakllantirishga xizmat qildi. Biroq bizning fikrimizcha, “yuqoridan pastga” yondashuvning ustunligi va tarmoqlar kesimida qo‘llab-quvvatlash rejimlarining turlicha bo‘lishi tarkibiy cheklovlarni keltirib chiqarmoqda: ishtirokchilarning ma‘muriy qarorlarga bog‘liqligi

ortishi, tarmoqlar bo‘yicha “o‘yin qoidalari”ning notekisligi hamda de facto “1 klaster – 1 tizimni shakllantiruvchi korxonaga” modelining mustahkamlanishi uzoq muddatda raqobat, bozorga kirish va texnologik yangilanishni cheklashi mumkin.

Tahlilimiz shuni ko‘rsatadiki, davlat qo‘llab-quvvatlash instrumentlarining kengligi o‘zi bilan birga kuchli hamroh institutlar va ishonchli natijadorlik baholash tizimi bo‘lmasa, klasterlarda barqaror samaradorlik o‘rishini avtomatik ta‘minlamaydi. Monitoringning zaifligi, mustaqil fasilitatorlar yetishmasligi, klaster ichidagi boshqaruv mexanizmlarining shaffofligi cheklanganligi va tartibga solishning parchalanganligi tranzaksion xarajatlarni oshiradi hamda R&D, kooperatsiya va qiymat zanjirlarida yuqoriga ko‘tarilish (upgrading) rag‘batlarini pasaytiradi. Texnologik qaramlik, bozor to‘siqlari va ta‘minot zanjiri uzilishlari sharoitida bunday institutsional kamchiliklar klasterlarning “ma‘muriy tashkil etilgan” tuzilma sifatida qolib ketishi, bozor mexanizmlari asosida uzluksiz yangilanadigan ekotizimga aylana olmasligi xavfini kuchaytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun biz direktiv boshqaruvdan bozor tamoyillariga o‘tishni taklif etamiz: yagona klaster siyosati doirasini (ta‘riflar, qoidalar va baholash mezonlarini standartlashtirish) qabul qilish, aniq KPI va ochiq hisobotlilikka tayanuvchi majburiy natijadorlik monitoringini joriy etish, shuningdek, zanjir monopolisti emas, balki xizmat ko‘rsatuvchi muvofiqlashtiruvchi sifatida ishlaydigan mustaqil fasilitatsiya tizimini shakllantirish zarur. Davlat ko‘magi (soliq imtiyozlari, subsidiyalar va imtiyozli moliyalashtirish) o‘lchab bo‘ladigan natijalar — eksport, qo‘shilgan qiymat, unumdorlik, R&D intensivligi va texnologik yangilanish — bilan bevosita bog‘lanishi lozim. Shu bilan birga, “1 klaster – 1 korxonaga” modelidan bosqichma-bosqich voz kechib, klaster ichida umumiy infratuzilma va bozorlaridan kamsitmasdan (nondiscriminatory) foydalanishni ta‘minlaydigan yanada tarmoqlashgan va raqobatli konfiguratsiyalarga o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гамидуллаева Л. А., Страхов Е. П. Эволюция концепции кластерного развития: от агломерационной теории к экосистемам // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2023. Т. 14. № 1. - С. 106–125.
2. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Strategy "Uzbekistan — 2030". [Режим доступа]: <https://lex.uz/ru/docs/6600404>
4. Портал обсуждения проектов нормативно-правовых актов. [Режим доступа] <https://regulation.gov.uz/ru/d/79193>